

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQLARIDAGI NUQSONLARNI BARTARAF ETISH AHAMIYATI

Samarqand viloyati Toyloq tumani
10-umumiy o'rta ta'lif maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Qarshiyeva Orzigel Nurmaxmadovna

Annotatsiya: Bolalarning erkin foydalanishlari uchun o'quv dasturida samarali til ko'nikmalari zarurdir. boshlang'ich sinflarda og'zaki til bolalar uchun boshlang'ich o'rganish vositasidir. Kognitiv rivojlanishda tilni rivojlantirish juda muhim bo'lib, o'qishning o'zi ko'pchilik tomonidan ko'rildigan ijtimoiy faoliyatdir. bola boshlang'ich mifikni boshlaganda, ular aytilganlarning ko'pini tushunish, o'zлari aniq ifoda etish, his-tuyg'ularini baham ko'rish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Nutq, til va aloqadagi bu jarayon bolaning kognitiv, ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Maqolada bolalalr nutqini rivojlantirishda qo'llaniladigan usullar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutq, og'zaki, aloqa, rivojlanish, e'tibor, me'yor.

Ma'lumki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki boshqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. So'zlashuv tili esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi. So'zlashuvga o'rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak. kichik yoshdag'i mifik o'quvchilariga ma'naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili, shu jumladan, o'qish nutq o'stirish ta'lif – tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir. O'quvchilarining og'zaki va yozma nutqlarini me'yorlashda, ularning mutanosibligini ta'minlashda, milliy tilning tabiatini va o'ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya'ni qiroat bilan o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yori va mezonlariga rioya qilish, o'qish, o'qish metodlarini takomillashhtirish yo'llarini izlash va eng

qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf oquvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o'quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzulish sabablarini o'rganish lozim. buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq ostirishongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo'lgan bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'stirish, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi. Og'zaki nutiqqa o'rgatishning ilk davrida daktiologiya (qo'l alifbosi) dan foydalilaniladi. Bu narsa bolalarning tovushlarni talaffuz qilib, o'zlashtirib borganlari sari faqat yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bola tilini rivojlantirishda bir qator aspektlar mavjud bo'lib, bularni hisobga olgan bolalarda o'rgangan fikrlarini erkin namoyon etish ko'nikmalari rivojlanadi.

Bolalarni o'z fikrini mustaqil yozishga (o'qilgan matnni hikoya qilishga) o'rgatishni, iloji boricha, erta boshlash ma'qul. buning uchun o'quvchilar og'zaki hikoya qilayotganda qo'llagan alohida so'zni yozishdan gapni yozishga, so'ng matn qismlarini yozishga va 2-sinfdan boshlab maxsus tanlangan kichik matn asosida bayon yozishga o'rgatiladi. Ish quyidagicha uyushtiriladi: bayon uchun tanlangan matnni o'quvchilar birikki marta o'qiydilar (o'qituvchi o'qib berishi ham mumkin); bolalarning matn mazmunini to'g'ri tushunganliklarini aniqlash, o'qilgan matnni, uning g'oyaviy mazmunini, qismlari orasidagi bog'lanishni to'liq bilib olishga qaratilgan suhbat o'tkaziladi; matn rejasi tuziladi (reja suhbat vaqtida tuzilishi ham mumkin); lug'at ishi o'tkaziladi (so'zning ma'nosi va yozilishi tahlil qilinadi), muhimroq sintaktik tuzilmalarga va tilning tasviriy vositalariga diqqat jalgan qilinadi. Ayrim gaplar, hatto matn qismlari tuzdiriladi; o'quvchilar bayon matnnini mustaqil yozadilar, o'qituvchi esa ular ishini kuzatadi, sinfdagi boshqa o'quvchilarga xalaqit bermay ayrim bolalarga individual yordam beradi; bolalar yozgan bayonlarini o'zlarini

tekshiradilar, takomillashtiradilar va daftarni tekshirish uchun o‘qituvchiga lar.

Xulosa o‘rnida shuni aytamizki, ba’zi bolalar ular bilan gaplashish yoki jumlalarning grammatik qoidalari qurilish jarayonida bu so‘zlarni tushuna olmasliklari mumkin. bolalarga boshlang‘ich sinflardanoq nutq madaniyatini hamda so‘z boyligini oshirish kelajakda ulardagi nutq kamchiliklarini oldini oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Speech, Language and communication Needs and Primary School-aged children.
2. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. —bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., —Istiqlol, 2006.